



THE ESSENCE OF YOUTH ARTISTIC CREATION DEVELOPMENT AS A SYSTEMATIC AND LEGAL PROCESS

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Senior Lecturer at the Department of "National Idea Fundamentals of Spirituality and Legal Education" of Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, artistic creativity, development, systematic and legal process, state policy, development of art and culture, social life and education of youth.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: The article analyzes the process of development of youth artistic creativity in Uzbekistan as a systematic and legal process. Attention is paid to the aspects of the process of development of artistic creativity among youth related to the state policy, the development of art and culture. The aspects of the process of development of youth artistic creativity in Uzbekistan related to the socio-economic, political-legal, spiritual-enlightenment life of society are considered.

YOSHLAR BADIY IJODI RIVOJLANISHINING TIZIMLI VA QONUNIY JARAYON SIFATIDAGI MOHIYATI

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Nukus, Qoraqalpog`iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yoshlar, badiiy ijod, rivojlanish, tizimli va qonuniy jarayon, davlat siyosati, san’at va madaniyat rivojlanishi, ijtimoiy hayot va yoshlar tarbiyasi.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda yoshlar badiiy ijodi rivojlanishi jarayoni tizimli va qonuniy jarayon sifatida tahlil qilingan. Yoshlarda badiiy ijod rivojlanishi jarayonining davlat olib borayotgan siyosat bilan, san’at va madaniyat rivojlanishi bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonda yoshlar badiiy ijodi rivojlanishi jarayonining jamiyat hayoti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy hayoti bilan bog‘liq jihatlari ko‘rib o‘tilgan.

СУТЬ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА МОЛОДЕЖИ КАК СИСТЕМНЫЙ И ЗАКОНОМЕРНЫЙ ПРОЦЕСС

Дилфузা Оралбаевна Бекимбетова

Старший преподаватель кафедры

«Национальная идея, основы духовности и правовое образование»

Нукусского государственного педагогического института имени Ажиниёза

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, развитие, процесс развития художественного творчества молодежи в Узбекистане как системный и закономерный процесс.

государственная политика, развитие искусства и культуры, общественная жизнь и воспитание молодежи.

Аннотация: В статье анализируется художественное творчество, развитие, процесс развития художественного творчества молодежи в Узбекистане как системный и закономерный процесс. Уделяется внимание аспектам процесса развития художественного творчества молодежи, связанным с государственной политикой, развитием искусства и культуры. Рассматриваются аспекты процесса развития художественного творчества молодежи в Узбекистане, связанные с социально-экономической, политико-правовой, духовно-просветительской жизнью общества.

Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy rivojlanishiga shart-sharoit yaratish bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida katta e'tibor qaratilayotgan masaladir. Yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirish jarayoni tizimli, qonuniy tarzda bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, badiiy adabiyot, she'riyat, tasviriy va amaliy san'at, musiqa, raqs va inson ijodiy faoliyatining boshqa turlari yoshlarda estetik ong va madaniyat, badiiy ijodni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning badiiy ijodida ularning ijtimoiy jarayonlarga munosabati, o'ziga xos badiiy talqini, his-tuyg'ulari o'z ifodasini topadi. Badiiy ijod jarayoni, san'at asarlari vositasida yoshlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ibratli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan voqe-hodisalarni tanlab oladi, badiiy tahlil qiladi, ularga badiiy ijodiy jarayon sifatida baxo beradi. Natijada yoshlarda hayotiy voqe-hodisalarga nisbatan ijodiy, zavqli, estetik munosabat shakllanadi. Yoshlar hayotdagi voqe-hodisalarni tizimli, qonuniyatli jarayon sifatida estetik idrok qiladilar.

Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak[1]. Yoshlarga ta'lim-tarbiya jarayoni tizimli ravishda san'at va madaniyat, badiiy ijod jarayonini ham qamrab oladi.

Shu sababli tengsiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir[2], - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonda davlatning yoshlar sohasidagi siyosati, ularda badiiy ijodni rivojlantirish jarayoni tizimli va qonuniy jarayon sifatida bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida, “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, deyilgan[3] bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-406 son) va ushbu Qonunning 12.1-“Madaniyat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari”, deb nomlangan moddasida - madaniyat organlari - yoshlar o‘rtasida badiiy ijodiyot, xalq va havaskorlik ijodiyoti targ‘ibotini amalga oshiradi; yoshlar o‘rtasida kino, teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy san’atni, sirk, xalq amaliy san’atini va estrada san’atini rivojlantirishga, ularning g‘oyaviy-badiiy va axloqiy savyasini oshirishga ko‘maklashadi; yoshlar o‘rtasidagi ommaviy-madaniy va bayram tadbirdari g‘oyaviy mazmun bilan to‘ldirilishini ta’minlaydi, ijodiy uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi; yoshlar o‘rtasida xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashda, konferensiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazishda ishtirok etadi; ijodkor yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi, ularning o‘z iqtidori va iste’dodini to‘laqonli namoyon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi[4], deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar badiiy ijodini rivojlantirish masalasi tizimli va qonuniy jarayon sifatida amalga oshirilib, ushbu jarayon bosqichma-bosqich chuqurlashib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar badiiy ijodini rivojlantirishning huquqiy asoslari ham doimo takomillashib bormoqda. 2024 yil 1-aprelda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-147-son qarori qabul qilinib, ushbu qarorga ko‘ra 2024-2025 o‘quv yildan boshlab Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarida, - ijtimoiy va ijodiy faol, keng jamoatchilik o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan adiblar va jamoat arboblari ishtirokida mahorat darslari o‘tkaziladi; jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga badiiy tarjima qilish maqsadida “Yosh tarjimonlar” klublari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi; o‘quvchilarda axloqiy, ijtimoiy-emotsional va estetik didni rivojlantirish maqsadida “Tasviriy san’at va chizmachilik” fani negizida “San’at” (ART) fani kiritiladi; o‘quvchilarning

sun’iy intellekt va robototexnika yo‘nalishiga qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yaratuvchilik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida 7-9-sinflarning “Texnologiya” fani doirasida robototexnika asoslari o‘rgatiladi; ijod maktablari o‘quvchilarini o‘z ijodiy faoliyat natijalarini, jumladan ijtimoiy tarmoqlarda va onlayn platformalarda tijoratlashtirishga o‘rgatish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi[5].

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligida Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarini amalga oshirilishi bo‘yicha nazorat va hisobdorlik tizimi mavjud bo‘lib, har bir topshiriq ijrosi elektron tizim orqali nazoratga olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Prezident Shavkat Mirziyoyevning 11 ta farmonida belgilangan 40 ta, 34 ta qarorida belgilangan 162 ta, 2 ta farmoyishida belgilangan 24 ta, 18 ta yig‘ilish bayonida belgilangan 65 ta topshiriq ijrosi sifatli tashkil etildi[6]. O‘zbekistonda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida yoshlar o‘rtasida sport, madaniyat va san’at, kitobxonlik, kasb-hunar yo‘nalishlarini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 16 fevraldagи “Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va qobiliyatlarini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2024 yilgi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi 28-bayoni ijrosini ta’minalash masalasiga ham e’tibor kuchaytirildi. Yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularga erkin va qulay shart-sharoitlar hamda teng imkoniyatlar yaratish masalasiga bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlar badiiy ijodi tizimli va qonuniy jarayon sifatida bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilmoqda. Ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarni ko‘rib o‘tganda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Toshkentdagи Yoshlar ijod saroyida kreativ park foydalanishga topshirilib, “Ijod” kitob do‘koni ochildi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 97 mingdan ortiq yosh uchun 239 ta talabalar turar joyida yoshlarga oid davlat siyosatini targ‘ib qiluvchi maxsus stend, kitobxonlikni rivojlantirish uchun 50 nomdagи 23,9 mingta badiiy adabiyot hamda QR-kodli kitoblar stendidan iborat “Kitob karvoni” loyihasi tashkil etildi. Xorijiy tillarni o‘rgatishga qaratilgan “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida 22 ta til bo‘yicha 1800 dan ortiq videodars yaratilib, 2 million yosh qamrab olindi. O‘zbekiston Prezidentining 2022 yil 20 yanvardagi qarori ijrosini ta’minalash maqsadida “Zakovat” intellektual klub uchun alohida bino hamda Intellektual o‘yinlar shaharchasi barpo etildi[7].

O‘zbekistonda bugungi kunda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun yordam beradigan yaxlit va uzlusiz tizim yaratilmoqda. Yoshlarning badiiy ijodini rivojlantirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlarning iqtidori va iste’dodini rivojlantirish O‘zbekistonning yoshlarga oid siyosatida katta e’tibor qaratilayotgan masaladir.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Men har gal yoshlar bilan uchrashganimda, “Ilmni qadrlang, ilmga intiling!” degan so‘zlarni takrorlashdan aslo charchamayman. O‘zingiz ko‘ryapsiz, dunyoda o‘qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda[8].

Vikipedia internet tarmog‘ida o‘zbek tilida yaratilgan maqolalar soni 239 mingtaga yetkazilib, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 45-o‘ringa ko‘tarildi. Chet tillarni o‘rganish bo‘yicha 18 ta xalqaro imtihon tizimida 70 foizdan yuqori natija ko‘rsatgan 12359 yoshga 21,7 milliard so‘mlik imtihon xarajatlari qoplab berildi. Yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantirish maqsadida “Zukko kitobxon”, “Bilim uchun 100 million” loyihalari amalga oshirildi. Ajdodlar merosini o‘rganish maqsadida “Uyg‘onish” rukni ostida ilk Uyg‘onish davri allomalari va ularning ilmiy merosi xususida so‘z yurituvchi 7 ta kitobdan iborat to‘plam chop etildi[9].

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar badiiy ijodining rivojlanishi jarayoni tizimli va qonuniy jarayon sifatida yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashuvi bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilmoqda. Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’i hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish[10], yoshlar ilmiy dunyoqarashi, badiiy ijodi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning bugungi kun o‘zgarishlariga optimistik qarashlari, istiqbol rejalarining barqarorligi ularning iqtisodiyot, ma’rifat, ma’naviyat borasidagi islohotlarga munosabatlarda ayniqsa yorqin namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar ilm-fanga qiziqish darjasи, turli kasblarni o‘zlashtirishdagi intiluvchanlik fazilatlari jihatidan aholining boshqa yoshdagi vakillariga nisbatan sezilarli nisbatlarda ustunlik qilmoqdalar. Xususan, yoshlarning aksariyati (81%) mamlakatni nurli istiqbolga olib keluvchi bosh omil sifatida ma’rifiy-intellektual islohotlarni belgilaydilar. Yoshlarning siyosiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qarashlari tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘zbekistonlik yoshlar o‘z ona-Vatanini boshqa davlatlar bilan qiyoslab bo‘lmaydigan aziz diyor sifatida ta’kidlaydilar. Bunday e’tirof ularning mutlaq ko‘pchiligidagi (81,2%) “Boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ketib qolish istaklarining yo‘qligida”, “O‘zbekiston davlatining fuqarosi bo‘lishdan iftixor tuyg‘usini his etishlarida” (89%), “Mamlakatimizda milliy va fuqaroviyl totuvlik barqaror” ekanligini anglashlarida (92,2%) namoyon bo‘lmoqda[11].

Yoshlarda badiiy ijodning rivojlanishi jarayoni murakkab tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida yoshlar dunyoqarashining shakllanishi, ularda badiiy ijod va ilm-fanga qiziqish, vatanparvarlik tuyg‘usining qaror topishi bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Yoshlarda badiiy ijodning rivojlanishi idrok etish, baholash, qadrlash kabi yoshlar faoliyati turlari asosida sodir bo‘ladi. Yoshlarda badiiy ijodning rivojlanishi jamiyat ijtimoiy-siyosiy xayotidagi barqarorlik, jamiyat ma’naviy hayotidagi ma’naviy-madaniy tafakkur darajasining yuksalishi asosida ro‘y beradi.

O‘zbekistonda bugungi kunda yoshlar badiiy ijodini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilib, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at vositasida tizimli ravishda yoshlarda badiiy ijodiy tafakkur va dunyoqarash shakllantirilmogda. Badiiy ijodi rivojlangan yoshlarni tarbiyalash O‘zbekistonda barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirish jarayoni oila, maktabgacha ta’lim, umumiyo o‘rtta ta’lim, kasbiy ta’lim, san’at maktablari, oliy ta’lim tarzida ta’lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida tizimli ravishda amalga oshirilmogda. Yoshlarda badiiy ijodni rivojlantirish, san’at va madaniyat tarbiyasi barkamol inson tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. Toshkent, O‘zbekiston 2019 yil, 10 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. Toshkent, O‘zbekiston 2019 yil, 135 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston 2023 yil, 31 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 14.09.2016 yil. O‘RQ-406-son. <https://lex.uz/docs/3026246>
5. Ijodkor yoshlar yangi fanlarga o‘qitiladi.
https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/ijodkor_eshlar_yangi_fanlarga_uqtiladi
6. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari.
<https://www.uzembassy.uk/news/1051?language=uz>
7. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari.
<https://www.uzembassy.uk/news/1051?language=uz>
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil 256 bet.
9. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari.
<https://www.uzembassy.uk/news/1051?language=uz>
10. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. Toshkent, Cho‘lpon, 2018 yil, 387-388 betlar.

11. Bekmurodov Mansur. O‘zbek mentaliteti. Toshkent, “Info Capital Group”, 2011 yil,
41 bet.